ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK:373.3.091.3:811.512.133
ORCID: 0009-0004-7277-9874

ABDUNAZAROVA ZAYNAB ALMUROD QIZI
Termiz davlat pedagogika instituti, p.f.f.d. (PhD)
E-mail. zaynababdunazarova615@mail.com

SHAXS IJTIMOIY–KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada shaxsning ijtimoiy–kommunikativ kompetentligi tushunchasi, uning tarkibiy tuzilmasi hamda shakllanish jarayoni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ijtimoiy–kommunikativ kompetentlik shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan muhim kompetensiyalardan biri bo'lib, u muloqot jarayonida ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga rioya qilish, turli ijtimoiy vaziyatlarga moslashish, hamkorlikda ishlash, muammoli holatlarni muloqot orqali hal etish hamda o'z fikrini asosli va ravon ifodalash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Maqolada ijtimoiy–kommunikativ kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari — kommunikativ bilimlar, amaliy muloqot ko'nikmalari, ijtimoiy tajriba, empatiya, tolerantlik va reflektiv qobiliyatlar yoritib beriladi. Shuningdek, ushbu kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar sifatida oila va tarbiya muhiti, ta'lim tizimi va pedagogik yondashuvlar, tengdoshlar jamoasi, ommaviy axborot vositalari, raqamli texnologiyalar hamda shaxsning individual-psixologik xususiyatlari atroflicha ko'rib chiqiladi.

KALIT SO`ZLAR: *ijtimoiy–kommunikativ kompetentlik, shaxs kompetensiyasi, muloqot madaniyati, kommunikativ ko'nikmalar, ijtimoiylashuv jarayoni, empatiya, tolerantlik, refleksiya, ta'lim va tarbiya, ijtimoiy muhit, raqamli kommunikatsiya.*

СОЦИАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ЧЕЛОВЕКА И ФАКТОРЫ ЕЕ ФОРМИРОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ. В данной статье представлен научно-теоретический анализ концепции социально-коммуникативной компетентности человека, её структурного устройства и процесса формирования. Социально-коммуникативная компетентность является одной из важных компетенций, необходимых человеку для успешного функционирования в обществе, и включает в себя способность придерживаться социальных норм и ценностей в процессе общения, адаптироваться к различным социальным ситуациям, работать в команде, решать проблемные ситуации посредством коммуникации, а также выражать своё мнение обоснованно и точно.

В статье освещаются основные компоненты социально-коммуникативной компетентности: коммуникативные знания, практические навыки общения, социальный опыт, эмпатия, толерантность и рефлексивные способности. Также подробно рассматриваются факторы, влияющие на формирование и развитие этой компетентности, такие как семья и воспитание, система образования и педагогические подходы, окружение сверстников, средства массовой информации, цифровые технологии и индивидуальные психологические особенности человека.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *социально-коммуникативная компетентность, личностная компетентность, культура общения, коммуникативные навыки, процесс социализации, эмпатия, толерантность, рефлексия, образование и воспитание, социальная среда, цифровая коммуникация.*

SOCIAL-COMMUNICATIVE COMPETENCE OF A PERSON AND ITS FORMING FACTORS

ABSTRACT. This article provides a scientific and theoretical analysis of the concept of a person's social and communicative competence, its structural structure and the process of its formation. Social and communicative competence is one of the important competencies necessary for a person to successfully function in society, and it includes the ability to adhere to social norms and values in the process of communication, adapt to various social situations, work together, solve problem situations through communication, and express one's opinion well-founded and fluently.

The article highlights the main components of socio-communicative competence - communicative knowledge, practical communication skills, social experience, empathy, tolerance and reflective abilities. It also examines in detail the factors influencing the formation and development of this competence, such as the family and upbringing environment, the education system and pedagogical approaches, the peer community, the media, digital technologies and the individual psychological characteristics of the individual.

KEYWORDS: *social-communicative competence, personal competence, communication culture, communicative skills, socialization process, empathy, tolerance, reflection, education and upbringing, social environment, digital communication.*

KIRISH. Zamonaviy ta'lim jarayoni shaxsning ijtimoiy–kommunikativ kompetentligini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilishi bilan an'anaviy ta'limdan farqlanadi. Ijtimoiy–kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda esa, shaxsning ijtimoiy muloqot madaniyatini, ijodiy qobiliyatini, ijtimoiy xulq–atvorini va dunyoqarashini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O'quvchilar ijtimoiy–kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni o'quvchilar ta'lim–tarbiyasidagi quyidagi muammolarni hal etishga yordam beradi:

o'quvchilar xulqiy imkoniyatlari va iqtidorlarini yuzaga chiqarish;

jamoa faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsata bilish;

ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish;

ekstravertal ko'nikmalarni tarkib toptirish;

liderlik sifatlarini shakllantirish;

jamoani tashkil etish va jamoa faoliyati yo'nalishlarini belgilash;

xulq atvorini jamoa maqsadi va faoliyatiga moslashtirish.

Yuqorida qayd etib o'tilgan sifatlarni shakllantirishda o'qituvchi jamoada munosabatlarning keng qamrovli tashkil etilishiga, jamoa a'zolari aro munosabatlarning muloqot madaniyatiga muvofiq yo'lga qo'yilishiga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Ijtimoiy–kommunikativ kompetentlik murakkabligi nuqtai nazaridan uni shakllantirishga integrativ yondashuvni talab etadi. Shuningdek, kommunikativ vaziyatga obyektiv munosabat bildira olish, o'z pozitsiyasini dalillay olish, muloqot jarayoni ishtirokchilari aro munosabatlarni to'g'ri tashkil eta bilish, muloqot vaziyatini to'g'ri anglagan holda unga muvofiq adekvat xulq–atvorni tarkib toptira bilish kabi sifatlar talab etiladi.

Ushbu o'rinda shaxs ijtimoiy–kommunikativ kompetentligi insonlarda qanday namoyon bo'ladi, uning qanday belgilari mavjud yoki uning shakllanganlik darajalarini qanday aniqlash mumkin degan muammo ushbu sohada izlanishlar olib borilishi lozimligini ko'rsatadi. Chunki yuqoridagi tahlillarda keltirib o'tilgan ijtimoiy–kommunikativ kompetentlik xususiyatlari barchada ham bir xil shakllanib bormaydi. Va yoki bir insonda ham ushbu sifatlar darrov tarkib topmasdan, asta–sekinlik bilan rivojlanib boradi.

Ijtimoiy–kommunikativ kompetentlik shakllanganlik ko'rsatkichlar turli insonlarda turli darajalarda bo'lib, pedagogik nuqtai nazardan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammo keng yoritib berilgan. Turli tadqiqotlarda ijtimoiy–kommunikativ kompetentlik shakllanganlik darajalarining turlicha tasnifi keltirib o'tilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

L.N. Buligina maktab o'quvchilarida ijtimoiy–kommunikativ kompetentlik shakllanganligining turli darajalarini keltirib o'tadi:



1.1–rasm. Maktab o'quvchilarida ijtimoiy–kommunikativ kompetentlik shakllanganligining darajalari. (L.N. Buligina fikriga ko'ra)

S.V.Titova esa, o'z tadqiqotlarida ijtimoiy–kommunikativ kompetentlik shakllanganligining to'rtta darajasini farqlab beradi:



1.2–rasm. O'quvchilarda ijtimoiy–kommunikativ kompetentlik shakllanganligining darajalari (S.V.Titova fikriga binoan)

S.V.Titova ijtimoiy–kommunikativ kompetentlik shakllanganlik darajalarining eng yuqori darajasi sifatida ijodiy darajani ko‘rsatadi[1]. Uning fikricha, ushbu bosqichga ko‘tarilgan o‘quvchida bilim o‘zlashtirish darajasi ham yuqori darajaga chiqadi, ijtimoiy muhitda faol harakat qiladi va jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Shu bilan birga bunday o‘quvchilar jamoa a’zolarini qo‘llab–quvvatlaydilar, ijtimoiy mas’uliyatli bo‘ladilar, jamoa faoliyati uchun qayg‘uradilar, yuksak muloqot madaniyati va lingvistik qobiliyatni namoyon eta oladilar. V.A.Tishenko esa, shaxs ijtimoiy–kommunikativlik darajasini reproduktiv, produktiv va ijodiy darajalarga ajratib ko‘rsatadi[1].

K.Kasentayeva kommunikativ kompetentlik uchta darajada – yuqori, o‘rta, past darajalarda bo‘lishini ko‘rsatib o‘tadi[2]. Uning fikricha ushbu darajalar quyidagi sifatlari bilan farqlanadi:

kommunikativ kompetentligi past darajada shakllangan o‘quvchilarda muloqot;

kommunikatsiya va qiziqishlar situativligi sohasidagi bilimlari tarkiblashmaganligi;

muloqotga kirishuvchanligi yaxshi shakllanmaganligi hamda muloqot mazmunini anglashga qiynalish.

Kommunikativ kompetentligi o‘rta darajada shakllangan o‘quvchilar kommunikativlik, muloqotga doir bilimlarni egallagan bo‘ladilar, muloqotga ehtiyojlari mavjud, ammo kommunikativlikka doir amaliy ko‘nikmalar ega emaslar.

Yuqori darajadagi kommunikativ kompetentlikka ega o‘quvchilar muloqot jarayoniga ongli kirishishga qodir bo‘ladilar, muloqotda tashabbuskorlik ko‘rsata oladilar, muloqot jarayoniga qiziqish bildiradilar va kommunikativ jarayon mazmunini to‘g‘ri anglaydilar.

O‘quvchilar ijtimoiy–kommunikativ kompetentligiga doir manbalar tahlili asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijtimoiy–kommunikativ kompetentligining uchta darajasini quyidagi xususiyatlarga ko‘ra, farqlanishini ko‘rishimiz mumkin:

past – reproduktiv daraja: o‘quvchilar namuna asosida yoki avvaldan ishlab chiqib taqdim etilgan harakatlar algoritmi asosida ijtimoiy faollik va muloqotga kirishadi. Ushbu darajadagi o‘quvchi muloqot mohiyatini to‘liq anglamaydi, muloqotga kirishishda tashabbuskorlik ko‘rsatmaydi. Faqat kimningdir tashabbusi bilan muloqotda ishtirok etadi, uni davom ettirishdan manfaatdor emas.

o‘rta – produktiv daraja: kam sonli, avvaldan jamoada o‘z o‘rnini saqlab turishga harakat qilmaydi, yangi vaziyatda muloqotga kirishishdan o‘ta tortinadi; tanish bo‘lgan kishilar jamoasi bilan muloqotga kirisha oladi, taqdim etilgan harakatlar algoritmini notanish boshqa vaziyatlarda ham qo‘llay oladi. Muloqotga kirishishda motiv, qiziqish va xohish mavjud, muloqot jarayonining tartibi, me’yorlarini, jamoaning faoliyat yo‘nalishlarini, muloqot yo‘nalishini yaxshi anglaydi, muloqot jarayonini mustaqil ravishda rejalashtiradi va uni boshqarishga harakat qiladi;

yuqori – kreativ daraja: mustaqil holda faol muloqotga kirisha oladilar, muloqot jarayonini to‘g‘ri rejalashtiradi, tashabbus ko‘rsatadi va boshqara oladi. Muloqot yo‘nalishini o‘zgartira oladi. U muloqot jarayonida qabul qilinadigan axborotlarni qadrlaydi, shu sababli faol muloqot jarayoniga kirishishni ma’qul ko‘radi. Muloqot jarayonida tashabbuskorlik ko‘rsatadi, mustaqil faoliyat yurita oladi, muloqot mazmuni va yo‘nalishini tanlashda avtomatlashgan harakatlardan foydalana oladi, kommunikativ vaziyat natijalarini prognozlay oladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar ijtimoiy–kommunikativ kompetentligi shakllanganlik mezonlarining har bir darajaga ko‘ra, shakllanganlik ko‘rsatkichlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1.1–jadval

№	Mezonlar	Reproduktiv daraja	Produktiv daraja	Kreativ daraja
1–mezon	o‘quvchi-larning ijtimoiy-lashganligi	Ushbu o‘quvchilar jamoa-ga moslashuvi qiyin kecha-di, jamoa a’zolari bilan mu-loqotda qiynaladi, o‘zini erkin tuta olmaydi. Jamoada o‘z o‘rnini saqlab turishga harakat qilmaydi.	Ushbu o‘quvchilar jamoaga yaxshi kirisha oladi, ayrim hollarda jamoa a’zolari bilan muloqot o‘rnatishda qiynaladi, avvaldan jamoada o‘z o‘rnini saqlab turishga harakat qilmaydi, yangi vaziyatda muloqotga kirishishdan o‘ta tortinadi.	Ushbu o‘quvchilar jamoaga tez kirishib ketadi, jamoa a’zolari bilan bemalol muloqot o‘rnata oladi, jamoada o‘zini erkin tutadi va jamoa a’zolarini bilan iliq munosabatlar o‘rnata oladi.
2–mezon	muloqot jarayonida o‘z fikrlarini erkin bildira oladi	Muloqotga kirishuvchanligi yaxshi shakllanmaganligi hamda muloqot mazmunini anglashga qiynalish. Mustaqil fikr bildira olmasligi.	Muloqot jarayonida o‘z fikrlarini ayrim hollarda erkin bildira olmasligi, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lishda qiynalishi. Fikrlarini bildirishda sustkashlikka yo‘l qo‘yishi.	Muloqot jarayonida o‘z fikrlarini erkin bildira olishi. Ya’ni, o‘quvchilarning o‘z fikriga egaligi, jamoaviy munosabatlarda o‘z fikrini erkin bildira olishi, fikrida qat’iy turishi va o‘z pozitsiyasini himoya qila bilishi bilan belgilanadi.
3–mezon	ijtimoiy muloqot madaniyati shakllangan	Jamoada o‘zaro muloqot o‘rnatishda qiynalishi, Ijtimoiylashuv jarayonlarida uyalish va fikrlarini bildirishga tortingan o‘quvchilar.	Ijtimoiy muloqot madaniyatining shakllanganligi, ayrim hollarda turli muammoli vaziyatlarda ham o‘z–o‘zini boshqarishda qiynalishi. Muloqotga kirishish jarayonida ayrim sustkashliklarga yo‘l qo‘yishi.	Ijtimoiy muloqot madaniyatining to‘liq namoyon bo‘lishi. Muloqot madaniyati me’yorlarini ajoyib tarzda egallaganligi va jarayonda ushbu me’yorlarga amal qilishi, turli muammo yuzaga kelgan vaziyatda ham o‘z–o‘zini boshqara bilishi kabi ko‘nikmalarni mazkur mezon qamrab oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy–kommunikativ kompetentlik shakllanganlik darajalarini va ularning mezonlarga muvofiqligini aniqlash ta'lim jarayonida o'quv predmetlari mazmuniga mos kelishini hamda o'quv predmetlarining o'quvchilar ijtimoiy–kommunikativ kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

O'quvchilarning kommunikativ kompetentligi tushunchasi muammoning nazariy va amaliy aspektlari nuqtai nazaridan 2 xil talqin etiladi. Ya'ni nazariy jihatdan til birliklarini egallash, lingvistik bilimlarni o'zlashtirishni anglatsa, amaliy nuqtai nazardan o'zlashtirilgan lingvistik bilimlarning realizatsiyasini ifodalaydi. O'quvchilar muloqotga kirishish jarayonida o'zlashtirgan lingvistik bilimlaridan foydalanadilar. Hayotda o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarning pragmatik jarayondagi foydalanilishi ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan «kompetensiya» sifatida ta'riflanadi.

O'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyalari quyidagi kompetensiya va subkompetensiyalarni qamrab oladi:

diskurs kompetensiya–muloqot jarayoni mazmunini anglash va ayrim o'rinlarda mantiqiy asoslangan munosabat bildirish kompetensiyasi;

grammatik bilimlarni egallashga doir kompetensiyalar;

verbal va noverbal muloqot usullaridan foydalana bilish kompetensiyasi;

vaziyatga muvofiq fikrini verbal ifodalay bilish kompetensiyasi;

muloqotga kirisha olish kompetensiyasi;

ijtimoiy madaniy kompetensiya;

muloqot madaniyatiga doir kompetensiyalar[3].

I.A.Zimnyaya fikriga ko'ra, "kommunikativ kompetensiya–murakkab kommunikativ ko'nikma va malakalarga egalik, yangi ijtimoiy tuzilmalarga adekvat bo'lgan ko'nikmalarning shakllanganligi, madaniy me'yorlar va muloqotdagi cheklovlarni bilish, muloqot sohasidagi odat, an'ana, tartiblarni bilish, axloq me'yorlariga amal qilish va tarbiyalanganlikdir. Shuningdek milliy mentalitetga tegishli kommunikativ vositalarga asoslanishni anglatadi"[4, 13–b].

Tilshunos olim A.R.Trunova kommunikativ kompetensiyani quyidagicha ta'riflaydi: "Kommunikativ kompetensiya–muloqot muhitiga moslashish qobiliyatiga muvofiq nutqiy faoliyat yo'nalishini tanlay olish; o'quvchilarning muloqot jarayonini jamoaga moslashuv jarayonida yuzaga keladigan suhbat mavzusi, vazifalari, kommunikativ pozitsiya nuqtai nazaridan tasniflay olish ko'nikmasidir"[5].

S.K.Kaldybaev qarashlariga ko'ra, kommunikatsiyaning psixologik strukturasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

muloqot ehtiyoji (shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar);

muloqot vositalarini tanlash (verbal yoki noverbal kommunikativ vositalarni);

kommunikatsiya jarayonida ijtimoiy vazifalarni amalga oshira olish ko'nikmasi;

ma'lum bir kommunikativ vazifalarni bajara olish;

tayanch muloqot ko'nikmalaridan foydalana olish;

suhbatda tashabbus ko'rsatish, qo'llab–quvvatlash va xulosalay olish[6].

D.Sherratt va M.Peterlar o'quvchilar kommunikativ faolligi quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlanishini ko'rsatib o'tadilar:

kommunikativ jarayonda tana harakatlari (tana tili, mimika, pantomimika)ni anglay olish va foydalana olish qobiliyati;

imo–ishoralarni anglash va ulardan to'g'ri foydalana bilish qobiliyati;

nutq qaratilgan obyektni qo'llab–quvvatlovchi kommunikativ vositalarning mavjudligi;

suhbatdoshini tinglay olish ko'nikmasi;

turli mavzulardagi suhbatlar jarayonida o'z fikrlari va munosabatlarini bildirishda turli nutq kompozitsiyalari va vositalaridan to'g'ri foydalana bilish[7].

Demak, kommunikativ ko'nikmalar bu – kommunikativ vazifalarni amalga oshirish jarayonida orttirilgan bilim, ko'nikma va malakalardan foydalangan holda muloqot usullaridan foydalana bilish imkoniyatlaridir.

Shaxs ijtimoiy–kommunikativ kompetentligini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1–guruh: Nutq ko'nikmalari va nutqiy vositalar bilan bog'liq ko'nikmalar – fikrlarini tushunarli tarzda ifodalay olish, nutq funksiyalarni to'g'ri amalga oshira olish, ifodali gapirish, nutqning manitiqiyligi, nutqning tizimliligi, nutqning maqsad bilan bog'liqliligi, intonatsiyaga amal qilish, nutqning mazmundor bo'lishi, nutqda shaxsiy fikr va munosabatlarning ifodalanishi.

2–guruh. Ijtimoiy psixologik ko'nikmalar – suhbatdoshlarning o'zaro hamkorligi, fikrlarining muvofiqligi, muloqot vaziyati bilan fikrlarning mos bo'lishi, muloqotni qo'llab–quvvatlash, muloqot kechayotgan psixologik vaziyatni obyektiv baholay olish, tashabbus ko'rsatish va saqlab qolish, suhbatdosh faolligini qo'llab–quvvatlash.

3–guruh. Psixologik ko'nikmalar – o'z–o'zini tahlil qilish, baholash, nazorat qilish, boshqarish, psixologik to'siqlarni yengib o'tish, ortiqcha bosimni yengib o'tish, muloqot jarayoniga emotsional moslasha olish, muloqot mazmuniga mos imo–ishora, nutq ohangi va intonatsiyani tanlay olish.

4–guruh. Kommunikativ vaziyatga muvofiq muloqot madaniyati me'yorlaridan foydalana bilish ko'nikmasi – diqqatni jalb eta olish, muloqot me'yorlarini anglash, foydalana olish, suhbatdosh bilan tanishish, salomlashish tartibiga amal qilish, vaziyatlarga muvofiq iltimos,

maslahat, taklif, ogohlantirish, hamdardlik, tilak bildirish.

5–guruh. Noverbal muloqot vositalaridan foydalana bilish ko'nikmasi – muloqotning paralingvistik vositalari (intonatsiya, temp, tanaffus, diksiya, temp, diksiya, ohang) dan to'g'ri foydalana bilish, ekstralingvistik vositalar (kulgu, shovqin, qarsaklar)dan samarali foydalanish, muloqotning kinetik vositalari (imo–ishora, mimika)dan foydalanish.

6–guruh. Suhbat jarayonida hamkorlik munosabatlarini o'rnatish – dialog shaklida, polilog shaklida.

Shaxs kommunikativligi uning ijtimoiy faolligini, ijtimoiyashuvini, ijtimoiy muhitdagi faolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy–kommunikativ kompetentlik o'zaro uzviy bog'liq tushuncha sifatida o'rganiladi.

Adaptatsiya tushunchasi ijtimoiy va tabiiy fanlar doirasida keng qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, tirik organizmlar (yoki ular tarkibiy qismlari)ning ma'lum bir muhitga, vaziyatga moslashuvini nazarda tutadi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "adaptatsiya" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "adapdatio"– "moslashuv" ma'nosini anglatishi va organizmning atrof–muhit sharoitlariga moslashishi, ko'nikishi ma'nolarida ishlatilishi qayd etiladi[8].

Umumiy holda adaptatsiya barcha tirik organizmlarning o'zgaruvchan muhitga moslashuvchanligi bilan bog'liq bo'lgan fundamental xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tushuncha tirik organizmlarning tabiiy, biologik, ijtimoiy xususiyatlari bilan bog'liq holda, tabbiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik fanlar tizimida keng qo'llaniladi.

Ijtimoiy moslashuv uzluksiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni, odatda individning o'z faoliyatini va o'zini o'rab turgan ijtimoiy davrasini tubdan o'zgartirish davrlari bilan bog'laydilar. Moslashish jarayonining ijtimoiy muhitga faol ta'sir etish ko'rinishi va muhitdagi maqsad va qadriyatlarni kelishuvchanlik bilan, passiv qabul qilish ko'rinishi bo'ladi. Ijtimoiy moslashish shaxs ijtimoiylashuvining asosiy ijtimoiy–psixologik omillaridan biridir[70].

XULOSA. Ta'kidlash kerakki, potentsial salbiy oqibatlar odatda subyekt o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelgan yoki aksincha, atrofdagi madaniy muhitning buzg'unchi elementlari ta'siri ostida bo'lgan holatlarda paydo bo'ladi. Bunday sharoitda shaxsiy yo'riqnomalar va ijtimoiy-madaniy kontekst o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'lib, bu shaxs va jamiyat institutlari o'rtasidagi barqaror aloqalarning buzilishiga, madaniy davomiylikning buzilishiga, ijtimoiy va qadriyatlarning tartibsizligi holatining paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ushbu salbiy jarayonlar deviant xulq-atvor va ijtimoiy disfunktsiyaning turli shakllarida, jumladan tajovuzkor reaktsiyalar, avantürizm, doimiy moslashuv va ijtimoiy o'zaro ta'sirning xaotik naqshlarini shakllantirishda namoyon bo'lishi mumkin. Bunday ko'rinishlar, bir tomondan, ijtimoiy va kommunikativ etuklikning etishmasligini, boshqa tomondan, individual sotsializatsiya shartlarini tizimli tuzatish zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Титова В.Б. Коммуникативная культура как условие успешности деятельности специалиста социально–культурной сферы, дисс. канд. пед. наук. Л., 2005. —154 с.

2.Касентаева К.У. Развитие коммуникативных компетенций старшеклассников на основе исползования дебатных технологий. Автореф. … дис. канд. пед. наук. – Алматы, 2019. – 28 с.

3.Xasanboeva O. va b.q. Oila pedagogikasi. – T.: Aloqachi, 2007. – 384 b.

4.Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно–целевая основа компетентностного подхода в образованииТекст. / И.А. Зимняя. М., 2004. – 392 с.

5.Трунова, А. Р. Научно–теоретические подходы к определению навыков коммуникации / А.Р. Трунова. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. –2018. – № 30 (216). – С. 76–79.

6.Калдыбаев С.К., Омурзакова Ч.Ч. Уровни социально–коммуникативной компетентности учащихся // Международный журнал экспериментального образования. – 2016. – № 5–1. – С. 20–23;

7.Шератт Д. Петер М. Теория и практика гуманитарного образования: ценностно–коммуникативный подход: перев. Шулько– Волгоград: ВГПУ, 2001. – 48 с.

8.O'zbek tilining izohli lug'ati. J. V. / Tahrir hay'ati: T.Mirzaev va b.q. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 608 b. 537–b.

Григорев Д. В. Программа внеурочной деятелности. Познавателная деятелност. Проблемно–ценностное общение: пособие для учительей образовательных учреждений/ Д. В.Григорев, П. В.Степанов. – М.: Просвещение, 2011.– 96с.